

## WAYS OF DEVELOPING INFRASTRUCTURE TO REDUCE POVERTY IN THE REGION (CASE OF BUKHARA REGION)

**Nazarov Sh. I.** Independent Researcher

**Annotation.** The thesis analyses infrastructure development as a mechanism for poverty reduction in Bukhara region. Based on the author's "5I model", the impact of infrastructure on territorial inequality is assessed and practical proposals are developed.

**Keywords:** regional economy, poverty, infrastructure, investment, 5I model, Bukhara region.

## MINTAQADA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

*Nazarov Sh.I., mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya.** Tezisdagi mintaqada kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy mexanizmi sifatida infratuzilmani rivojlantirish Buxoro viloyati misolida tahlil qilingan. Muallif tomonidan taklif etilgan "5I modeli" (Investments – Infrastructure – Inclusion – Innovation – Income) asosida hududiy tengsizlikka ta'siri baholangan va kambag‘allikni qisqartirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mintaqaviy iqtisodiyot, kambag‘allik, infratuzilma, investitsiya, 5I modeli, Buxoro viloyati.

**Аннотация.** В тезисах рассматриваются вопросы развития инфраструктуры как механизма сокращения бедности на примере Бухарской области. На основе авторской модели «5I» оценено влияние размещения инфраструктурных объектов на территориальное неравенство и предложены практические меры.

**Ключевые слова:** региональная экономика, бедность, инфраструктура, инвестиции, модель 5I, Бухарская область.

Jahonda kambag‘allikni qisqartirish BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 1) doirasida ustuvor vazifa hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo

aholisining 8,5 foizi kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad bilan kun kechirmoqda; mintaqaviy kambag'allikning asosiy omili esa infratuzilma yetishmovchiligi va uning nomutanosib taqsimlanishidir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga ko'ra, mamlakatda kambag'allik darajasini 7 foizgacha kamaytirish belgilangan. 2023 yil yakunlari bo'yicha Buxoro viloyatida kambag'allik 9,8 foizni tashkil etgan, lekin tumanlar kesimida sezilarli tengsizliklar saqlanmoqda: G'ijduvon va Qorako'l tumanlarida bu ko'rsatkich 12 foizdan oshadi, shaharga yaqin hududlarda esa 6-7 foizga tushadi.

Muallif tomonidan taklif etilgan "5I modeli" mintaqaviy kambag'allikni qisqartirishning tizimli yondashuvi sifatida ishlab chiqildi va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) Investments — infratuzilmaga kapital qo'yilmalar; 2) Infrastructure — transport, muhandislik va ijtimoiy ob'ektlar; 3) Inclusion — kam ta'minlangan aholining iqtisodiy jarayonlarga qamrab olinishi; 4) Innovation — raqamli va "yashil" texnologiyalar; 5) Income — barqaror ish o'rni va daromad manbalari.

Buxoro viloyati infratuzilmasi tahlili shuni ko'rsatdiki, qattiq qoplamali yo'llarning uzunligi 1180 kilometrga yetgan, ammo ichki tuman yo'llarining 28 foizi remont talab qiladi; elektr tarmog'i yo'qotishlari 13,2 foizni tashkil etadi; toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish shaharlarda 92, qishloqlarda atigi 71 foizni tashkil etadi. Bu holat qishloq xo'jaligi, turizm va kichik biznesning o'sish salohiyatini cheklab qo'ymoqda.

Raqamli infratuzilma sohasida mobil aloqa qamrovi 98,7 foizni, 4G qamrovi 84,5 foizni tashkil etadi, biroq uzoq tumanlarda o'rtacha internet tezligi mamlakat o'rtacha ko'rsatkichidan 32 foizga past. Bu esa elektron tijorat, masofadan ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kamaytirib, "raqamli tengsizlik" orqali qishloq xo'jaliklari o'rtasida kambag'allikning saqlanishiga sabab bo'lmoqda. Regression tahlil natijalariga ko'ra, infratuzilmaga har 1 foiz qo'shimcha investitsiya kambag'allik koeffitsientining 0,34 foizga kamayishiga olib kelishi aniqlandi ( $R^2 = 0,776$ ;  $F = 3,469$ ;  $p < 0,1$ ). Xitoy, Turkiya (GAP) va Hindiston (PMGSY) tajribalari

maqsadli infratuzilma loyihalari 10-15 yil ichida mintaqaviy kambag'allikni 25-40 foizga kamaytirish imkonini berganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: birinchidan, mintaqada kambag'allikni qisqartirish ijtimoiy yordam tizimi orqali emas, balki infratuzilma orqali iqtisodiy imkoniyatlar yaratish yo'li bilan barqaror amalga oshirilishi lozim. Ikkinchidan, tumanlararo tengsizlikni bartaraf etish uchun "kambag'allik xaritasi" asosida manzilli investitsiya strategiyasini joriy etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, muallifning "5I modeli" mintaqaviy iqtisodiy siyosat uchun amaliy vosita bo'la oladi. To'rtinchidan, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari orqali 2025-2030 yillarda Buxoro viloyatida kambag'allik darajasini 6 foizgacha kamaytirish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.
2. World Bank. Poverty and Shared Prosperity 2024. – Washington, DC: World Bank, 2024. – 184 p.
3. Aschauer D.A. Is Public Expenditure Productive? // Journal of Monetary Economics. – 1989. – Vol. 23, №2. – P. 177-200.
4. Calderón C., Servén L. Infrastructure, Growth, and Inequality: An Overview // World Bank Policy Research Working Paper. – 2014. – №7034. – 39 p.
5. Бухоро вилояти статистика бошқармаси маълумотлари, 2019-2024 йй. – URL: <https://buxoro.stat.uz>